

XIX АСР ҚОРАҚАЛПОҚ МУМТОЗ ПОЭЗИЯСИНИНГ
БАДИЙ ПОЭТИК ХУСУСИЯТИ

Qoraqalpoq davlat universiteti
qoraqalpoq adabiyoti kafedrası dotsenti
(Phd) Toqimbetova Gulbaxar Abatbaevna
gulbaxartokimbetova@gmail.com
+998(90)5938480

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asr qoraqalpoq adabiyoti tarixi davri va mumtoz adabiyotining badiiy poetikasi masalalari soʻz etilgan. Bu davrda Kunxoʻja, Ajiniyoz, Berdaq va Oʻtesh kabi adabiyot namoyandalarining asarlari tadqiq qilingan. Ular yaratgan adabiy meros yozma adabiyotning eng yaxshi namunalari sifatida eʼtirof etiladi. Mazkur shoirlar ijodi boʻyicha tekstologik va tarixiy-filologik tadqiqotlar, shuningdek bu davrdagi shoirlar tomonidan yaratilgan lirik janrlarining vujudga kelishi va taraqqiyoti masalalari tadqiq qilingan.*

Kalit soʻzlar: *janr, doston, elegiya, lirik sub'ekt, individual lirik qahramon, poeziya leytmotivi, realistlik yoʻnalish, davr poeziyasi, adabiy meros, tekstologik va tarixiy-filologik tadqiqot.*

ARTISTIC POETIC CHARACTERISTICS OF THE CLASSICAL
POETRY OF KARAKALPAK OF THE XIX CENTURY

Abstract: *This article discusses the period of history of Karakalpak literature of the 19th century and the issues of artistic poetics of classical literature. During this period, the works of literary figures such as Kunkhoja, Ajiniyaz, Berdak and Oʻtesh were studied. The literary heritage created by them is recognized as the best examples of written literature. Textological and historical-philological researches on the work of these poets, as well as issues of the emergence and development of*

lyrical genres created by poets of this period have been studied.

Key words: *genre, epic, elegy, lyrical subject, individual lyrical hero, leitmotif of poetry, realism direction, period poetry, literary heritage, textological and historical-philological research.*

XIX asr qoraqalpoq adabiyoti xalq ijtimoiy-siyosiy ahvoli, madaniy hayoti tasvirida folklor san'ati o'rniga rang-barang janrlardagi yozma adabiyot shakllandi. Buning natijasida hayotni ijtimoiy munosabatlar bilangina emas, balki qalb tug'yoni bilan tasvirlash imkoniyati vujudga keldi. Bu borada, albatta, lirik janrlar har taraflama rivoj topdi. Qoraqalpoq og'zaki ijodining qator janrlari: doston, to'lg'ov (elegiya), shuningdek, an'ana va dasturlarda inson istaklarini ifodalavchi she'rlar, qayg'u va iztirob kabi tuyg'ular xalq dardi sifatida talqin qilindi. XIX asrga kelib badiiy ijoddagi bu xususiyatlar xalq merosiga aylangan holda mazkur davrda ijod qilgan shoirlar asarlarida individual lirik sub'ekt orqali berildi. Bu xususda adabiyotshunos olim, professor Q.Jarimbetov "Ijodiy individuallikka xos lirik xususiyatlar (individual lirik qahramon, lirik xarakter, lirik syujet, lirik konflikt, hissiy ta'sirchanlik va h.k.) XIX asr qoraqalpoq mumtoz lirikasida butun murakkabligini bilan namoyon bo'ldi" [Jarimbetov, 2004: 26], – deya ta'kidlaydi. Shuningdek, olimning kuzatishlarida XIX asrda lirik janrlar yuzasidan hozirgacha aniq xulosalar yuqligi, shuningdek, Darhaqiqat, XIX asr qoraqalpoq she'riyatiga xalq tarixini o'zida aks ettiruvchi badiiy manba sifatida qarash mumkin. To'g'ri, mavjud manbalarda aniq sanalar, faktlar keltirilmaydi. Chunki, bu badiiy ijod qonuniyatlariga muvofiq kelmaydi. Xususan, XIX asr o'rtalarida qoraqalpoqlar hayotida yuz bergan turkman bosmachilarining himoyasiz ommani qirg'inbarot qilgan – Bo'zatov voqeasi Ajiniyozning "Bo'zatov" she'rida yorqin tasvirlanadi:

Bizlar endi ketar bo'ldik bosh olib,
Xo'sh, omon bo'l, bizdan qolding, Bo'z atov.
Xo'shlaylik qora ko'zga yosh olib,
Xo'sh, omon bo'l, bizdan qolding, Bo'z atov.

El ham er bilandur, er ham el bilan,
Ersiz elning umri daydi el bilan,
Umr o'tar ko'zdan oqqan sel bilan,
Qadring o'tdi bizga sening, Bo'z atov.

Sen bog' eding – bulbul uchdi, zog' qoldi,
Butun tanam yondi, qalbda dog' qoldi,
Suyukli er, bukun seni yov oldi,
Boshi qutlug', so'nggi qochqin Bo'z atov

[Ajiniyoz, 1962: 32].

Bu satrlar orqali hayotiy voqealar hamda alam bilan qalb tubiga singgan dardlar tasvirlanganini ko'ramiz. Shoir xalq boshiga tushgan musibatlarni yuragidan o'tkazib, el qayg'usini, o'z dardi sifatida ifoda etadi. Shu ma'noda, XIX asr qoraqalpoq shoirlari aksariyat she'rlarida tarixiy qiyin davrlar o'zining badiiy in'ikosini topadi. Bu borada, Berdaq qalamiga mansub quyidagi satrlar alohida ahamiyat kasb etadi:

Berdimurod haqning quli,
Sahroning sariq bulbuli,
Besh kun mehmon odam o'g'li,
Nahotki armoni bo'lmas. ("Bulbul")

Yorqanot uchadi, qizil, pari yo'q,
Par yo'q, kori yo'q yo hunari yo'q,
Sovuqda ucholmas, holu sabri yo'q,
Yoz qish kabi ko'p dilozor ko'rindi

[Berdaq, 1978: 52].

Bu she'rlarda xalqning og'ir hayoti, davrning adolatsizligi, zulm va zo'ravonlik masalalari tasvirlanadi. Ko'rinadiki, mumtoz shoirlarning bunday she'rlariga ijtimoiy-tarixiy pozisiyadan turib munosabatda bo'lgani adabiyotshunoslikka doir ilmiy asarlarda ham aks etgan. XIX asr adabiyot

namoyandalariga xos sifatlar xalq iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini tasvirlagan holda davrga xos murakkab vaziyatlar real ifoda qilinadi.

Shoir Kunxo'ja asarlari mazmunida ijtimoiy va tarixiy mavzu yanada o'tkirlashgan holda yozma adabiyotning mavzular doirasi va badiiyatiga rang-baranglik olib keldi. Shu boisdan ham adabiyotshunos va tarixshunos olimlar Ko'nxo'jani qoraqalpoq yozma adabiyoti asoschisi deb biladilar. Bu haqda shoir hayoti va ijodi yuzasidan ilk tadqiqot olib borgan olim B.Ismailov o'z izlanishlarida shoir yashagan davr uning ijodida namoyon bo'ladi, degan fikr bildiradi [Ismaylov, 1961: 52].

Haqiqatan ham Kunxo'ja ijodi faqat qoraqalpoq xalqi tarixi bilangina emas, balki umuminsoniy muammolar tasviriga e'tibor qaratilishi bilan qimmatlidir. XIX asr o'rtalaridan Xiva xonligida siyosiy va ijtimoiy hayot bir qolipda bo'lmadi. Xalqning asosiy qatlami kambag'alliqda kun kechirdi. Yirik feodallar moddiy boyliklarning katta qismini o'z qo'llariga oldi. Natijada, jamiyatda katta ijtimoiy farqlar yuzaga keldi va bu holat bir qator noroziliklarni keltirib chiqardi. Ta'kidlash kerakki, Kunxo'ja she'riyati qoraqalpoq adabiyotida demokratik oqimlar ildizi sifatida qaraladi. Chunki, shoir ijodining aksariyat qismini XIX asrda qoraqalpoq xalqining og'ir turmushi, zamondoshlari kechirgan azobli umri tasviriga bag'ishlanganligini guvohi bo'lamiz. Shoir poeziyasining leytmotivi realistlik yo'nalish bo'lishining sababi ham shunda. Bu holat shoirning "Kun qayda" she'rida yorqin ifoda qilinadi:

Yonimdagi ikki birdek yo'ldoshim,
Qayg'uda tushdilar mening bu boshim,
Ko'zdan ko'ldaryo bo'lib oqdi ko'z-yoshim,
Bu dunyoda yashaganim nima foyda?

Berdaq shoir ijodida:

Yoru do'stim, qarindoshim,
Savdolarga tushdi boshim,
Mard yigit bo'lg'ay yo'ldoshim,
Baxt yo'lini izlar edim. [Berdaq, 1983: 29].

Shoirlar xalqning og'ir mehnatdan, ijtimoiy tengsizlikdan nolishi orqali shu davr voqeligi real tasvirini yaratadilar. XIX asr qoraqalpoq xalqi hayoti va ijtimoiy-siyosiy vaziyat, turli guruhlar orasidagi qarama-qarshiliklarni yoritishda Kunxo'ja va Berdaq lirikalarining realistik namunalari tarix va adabiyotshunoslikda dolzarb ahamiyatga ega.

Hulosa qilib aytganda, XIX asr qoraqalpoq poeziyasini xalq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tarixidan ayri holda o'rganish mumkin emas. Chunki, yuqorida qayd etganimizdek, bu davr poeziyasi, asosan, jamiyat siyosiy jarayonlari tasviriga bag'ishlangan. Davr lirikasida iztirob va zamonadan nolish etakchi mavzu bo'lgan. Shuningdek, XIX asr qoraqalpoq adabiyoti tarixida ayni davr muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq va O'tesh kabi adabiyot namoyandalari katta maydonga chiqdilar. Ular yaratgan adabiy meros yozma adabiyotning eng yaxshi namunalari sifatida e'tirof etildi. Mazkur shoirlar ijodi bo'yicha tekstologik va tarixiy-filologik tadqiqotlar olib borilgan holda munosib baho berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жәримбетов Қ. XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийетлери ҳәм раўажланыў тарийхы. –Нөкис: Билим, 2004. – Б. 26.
2. Ажиниёз Қўсибой ули. Танланган шеърлар. – Т.: Ўзадабийнашр, 1962. – Б. 32.
3. Бердақ. Сайланма: Шеърлар ва дoston. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 52.
4. Исмайллов Б. Күнхожаның өмири ҳәм творчествосы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1961.
5. Бердақ. Шеъриятидан. – Тошкент, 1983. – Б. 29.